KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING METODI

Xolida Nabiyevna Qosimova
o‘qituvchi,
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: O‘zbekiston "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: Kitobxonlik madaniyati, intellektual salohiyat, kitob, madaniyat, kitobxonlik ko‘nikmasi, ma’naviyat.

Hozirgi globallashuv sharoitida jahon miqyosida bo‘layotgan ijobiy va salbiy o‘zgarishlar mamlakatimizda yashovchi xalqlarning mafkuraviy immunitetini bir tizim shaklida shakllantirish va ularning hayotiy bardoshlilik qobiliyatlarini oshirish orqali o‘zligini saqlab qolish va rivojlantirish masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Mamlakatimizda mafkuraviy immunitet tizimining ob’yektini 33 millionga yaqin o‘zbek xalqi, uning sub’yektini esa ana shu xalq vakillari tomonidan mafkuraviy bilim, his-tuyg‘u, iroda ko‘nikma, malakaga ega bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy guruhlar tashkil etadi. Shu tariqa o‘zbek xalqi real makon va zamonda bir tomondan mafkuraviy immunitet tizimining ob’yekti, ayni vaqtda o‘ziga xos bo‘lgan bilim, ko‘nikma, iroda, malakalariga qarab sub’yekti hisoblanadi.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do‘st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o‘rni muhim. Millatning ma’naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib qo‘shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining, ayniqsa yoshlarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Kitob inson kamolotining sarchashmasi, ilm bo‘stonining nuri, tafakkur ko‘zgusi sanaladi. Shu bilan birga u insoniyat ongli hayoti va ma’naviyat olamining bosh timsollaridan saladi. Kitob – bepoyon olam: bag‘ri keng, osmoni baland, tubi teran... Bizdan burungi zamonlarda, uzoq va yaqin o‘tmishda yashagan insonlar o‘zlarida va atrofdagilarda kechgan jami zavq-shavq hamda lazzat, ilm-hunar gavharini o‘zlaridan keyingi avlodlarga me’ros bo‘lsin deya kitob sahifalariga muhrlab ketganlar.

Respublikada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning 5 ta qarori qabul qilindi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 19 mart kuni yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Ushbu beshta tashabbusning to‘rtinchisi, ya’ni aholi, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Shu o‘rinda hammamiz uchun aйni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni

keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”[1]. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan globallashuv jarayonida o‘quvchi-yoshlarda kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirish, o‘quvchilarning ma’naviy-intellektual darajasining o‘sishida kitobning o‘rni va ahamiyati nihoyatda zarur ekanligini barchamiz juda yaxshi tushunamiz. Muhtaram Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi kitobxonlik madaniyati targ‘ibotini yangi bosqichga ko‘tardi. Shu o‘rinda davlatimiz rahbari belgilab bergan mazkur ustuvor vazifani izchil va tizimli ravishda amalga oshirish mexanizmlarini ta’lim amaliyotiga joriy etish vazifasi turibdi. O‘quv-tarbiya jarayonidan kutilayotgan pirovard natija ta’lim taraqqiyotini, ta’lim taraqqiyoti esa o‘z navbatida jamiyatning taraqqiyotini belgilaydi desak xato qilmagan bo‘lamiz. Chunki, ta’lim natijasi har doim o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirganlik darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchi Davlat ta’lim standartlarini bajarish baraborida o‘z oldilariga muaйyan maqsadlarni qo‘yadi va shu maqsadga erishish uchun harakat qiladi. Qachonki, o‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsadlari kesishgan nuqtada ta’lim natijasi samarali bo‘ladi. Lekin masalaning boshqa tomoni bor, ya’ni ta’lim natijasi har doim sub’yektiv va individual xarakterga ega bo‘lgan. O‘quv materialining o‘zlashtirish qiйinchiliklari va quvonchlarini faqatgina o‘quvchi his qiladi, aynan shu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchi-ning motivlari, his-tuйg‘ulari, intilish va qiziqishlariga ta’sir qila oladigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlarda kitob o‘qish konikmasi shakllansa, kamoloti yo‘lida qolgan barcha amallarni kitobning o‘zi o‘rgatadi. “Ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tish jarayo-nida yoshlarni ish bilan ta’minlash muammosi dolzarb masalalardan biri. Bu muammoning hal etib borilishi yoshlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalarning yechimini topishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlarning kasb tanlashi, ish joylariga ega bo‘lishi ishlab chiqarishning intensiv ravishda rivojlanishi va юksak texnologik takomillashuv jarayonida ko‘p jihatdan ta’lim tizimining sifatiga ham bog‘liq. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yoshlarning kelajak hayotini rejalashtirish ishi eng avvalo oiladan boshlanadi” [2, 137].

O‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladigan pedagogik-psixologik jarayon ma’lum talablar asosida tashkil etilishi zarur. Xususan: o‘quvchilarda badiiy adabiyotni idrok qilish va anglash qobiliyatini rivojlantirishga erishish; bu jarayonda o‘quvchilarning intellektual, bilish va hissiy faoliyati yotishini nazarda tutish; mazkur jarayonning muayyan bosqichlardan iboratligini inobatga olish asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish; badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonining ovoz chiqarib o‘qishga asoslanishi samarali ekanligini inobatga olish; yorqin ranglar, e’tiborni tortadigan obrazlar bilan boyitilgan bolalarga mo‘ljallangan, yuqori sifatli poligrafiya mahsuloti bo‘lgan badiiy asarlarni tanlash; badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonida o‘quvchilarning tasavvur dunyosini boyitish, orzularini erkin bayon qilishlari uchun zarur imkoniyatni yaratish; o‘quvchilarni turli janrdagi adabiyotlar bilan yaqindan tanishtirib borish; bunda uyda ota-onalar o‘quv yurtlarida o‘qituvchlar tomonidan o‘quvchilarga badiiy asarlarning janrlari – proza (hikoya, qissa, ertak-roman), poeziya (she’r, ballada, qasida), dramaturgiya (spektakl, novella, miniatyura, radio instsenirovka) kabilar haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tiladi; shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarni fol’klor asarlar (xalq og‘zaki ijodi namunalari) va ular (xalq ertaklari, topishmoq, maqol, masal, hisobga o‘rgatuvchi va hazil she’rlar)dan ham tanishtirib borishi ularni badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarini kuchaytirishga yordam beradi; shuningdek, manbalarda bolalarni badiiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishishda zamonaviy axborot texnologiyalarning texnik va funktsional imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda bolalarga mo‘ljallangan badiiy adabiyotlarning audio va video mahsulotlarini

yaratish “bolaning kitob bilan muloqotini yaxshilash va rang-barang bo‘lishi”ga erishish imkoniyatini yaratishi aytiladi. Bu jarayonlarni amalga oshirishda pedagog oila hamkorligini ijobiy yo‘lga qo‘yishi lozim. Oila esa maktab o‘qituvchilari bilan doimo bog‘lanib farzandlari uchun qanday kitoblarni xarid qilinishiga maslaxatlar oladi.

Har qanday ish-harakat, faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda uni tashkil etishga qanchalik ko‘p kuch sarflash emas, balki jarayonning davomli, izchil, uzluksiz bo‘lishi samarali sanaladi. O‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham ana shu maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning davomli, izchil bo‘lishi muhimdir.

Bugungi kunda ko‘pincha bolalar kitob o‘qimayotganlikda ayblanadilar. Lekin ularga rang-barang adabiyotlar tavsiya qilish zarurligi ota-onalar, o‘qituvchilarning ham, kutubxonachilarning ham e’tiboridan chetda qolmoqda. Buning uchun o‘qituvchilardan o‘quvchilarning kitoblarga bo‘lgan qiziqishlari, ehtiyojlarini yaxshi bilishilari talab etiladi... O‘quvchilar kitob o‘qimasligining sabablardan biri oilada ota-ona, maktabda o‘qituvchi tomonidan kitobga mehr uyg‘ota olmaslik yoki o‘qiydigan, qiziqarli badiiy kitoblar yetishmasligidadir[3]. O‘quvchilarning kitob o‘qish va kitobxonlikka nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishlarida, yuqorida aytilganidek, bu jarayonni tashkiliy, moddiy ta’minotini yaratuvchi nashriyotlar, nazariy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan oqilona, samarali uyushtira olmayotgan ota-onalar, o‘qituvchilar hamda soha uchun mas’ul ijtimoiy tashkilotlarning javobgarligini inkor qilib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kosimova, X. (2022). THE IMPORTANCE OF READING CULTURE IN THE FORMATION OF A HEALTHY SPIRITUAL CLIMATE IN THE FAMILY. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 7-13.
2. Qosimova, X. (2022). THE SIGNIFICANCE OF LIBRARY CULTURE IN FORMING A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY. *Science and Innovation*, *1*(8), 142-148.
3. Qosimova, X. (2022). OILADA SOG’LOM MA’NAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA KITOBXONLIK MADANIYATINING AHAMIYATI. *Science and innovation*, *1*(B8), 142-148.
4. ҚОСИМОВА, Х., & КАРИМОВА, Г. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. *ЭКОНОМИКА*, 612-615.
5. Джалолова, М. (2021). Эъзоза Юлдашевна Рахманова, and Холида Набиевна Косимова.". *ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА." Scientific progress*, *1*.
6. Ismoilov, I., & Qosimova, X. (2022). Oilada Erkin Fuqaro Shaxsi Va Barkamol Avlodning Shakllanishi. *So ‘Ngi Ilmiy Tadqiqotlar Nazariyasi*, *1*(1), 232-238.
7. Kasimova, K. N. (2022). The role of reading culture in increasing the effectiveness of education and upbringing. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *11*(2), 17-24.
8. Косимова, Х. Н. (2021). Китобхонлик Кўникмасини Шакиллантиришда Оилага Педагогик Тавсиялар Бериш Тизими. *Scientific progress*, *1*(6), 107-110.
9. Джалолова, М., Рахманова, Э. Ю., & Косимова, Х. Н. (2021). Воспитание Сенсорного Восприятия У Детей Дошкольного Возраста. *Scientific progress*, *1*(6), 102-106.
10. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(2), 1-3.
11. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O ‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 176-182.

12. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, *1*(B8), 99-105.

13. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, *1*(8), 99-105.

14. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(2).

15. Buzrukova, D. M. (2023). "MUHABBAT" HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(1), 178-183.

16. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(11), 239-242.

17. Mamurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of "Love" As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *7*(5), 95-98.

18. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.

19. Buzrukova, D. M. M. (2023). TARBIYACHI VA OTA-ONALARNING O 'ZARO HURMATGA ASOSLANGAN MULOQOTINING KALIT FAKTORLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(4), 793-797.

20. Buzrukova, D. M. (2023). Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIY XABARLAR*, *1*, 318-321.

WORDLY KNOWLEDGE